



**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI MA'NAVIY
TARBIYALASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA
QADRIYATLAR UYG'UNLIGI**

Sarxadjanova Intizor Ikromovna

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti.

e-mail. sarxadjanovai@gmail.com (94) 565-22-99

Nuriddinova Nozilaxon Ahmadxon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti.

e-mail. nuriddinovanozilakhon@gmail.com (97) 926-09-15

Tayanch so'zlar: *ma'naviy tarbiya, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion usullar, kreativlik, An'anaviy va innovatsion usullar taqqoslanishi, rol o'yinlar, til o'rgatish ko'nikmalari.*

Annotatsiya. *Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda o'qituvchilar, ayniqsa, ingliz tili o'qituvchilari nafaqat til bilimlariga ega bo'lishlari, balki yuqori ma'naviy salohiyatga ega shaxslar sifatida shakllanishlari zarur. Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda innovatsion usullardan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi va amaliy yondashuvlari yoritib berilgan. Ingliz tili ta'limi orqali ushbu jihatlarni rivojlantirishda interaktiv metodlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs-munozaralar, rol o'ynash kabi innovatsion yondashuvlar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ingliz tilida axloqiy mavzularda esse yozish, refleksiya qilish va milliy qadriyatlarni ingliz tilida talqin qilish orqali talabalar o'zining ma'naviy pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek maqolada, ingliz tilini o'rganish jarayonida xalqaro va milliy qadriyatlarni*



uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada, bo'lajak o'qituvchilar til o'rgatish bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy yetakchi sifatida ham shakllanadilar.

Ключевые слова: *духовно -нравственное воспитание, современные информационно-коммуникационные технологии, инновационные методы, креативность, сравнение традиционных и инновационных методов, ролевые игры, навыки преподавания языка.*

Аннотация. *В эпоху глобализации и стремительного развития информационных технологий преподаватели, особенно будущие учителя английского языка, должны обладать не только лингвистическими знаниями, но и высокой духовной культурой. В данной статье раскрыта значимость, эффективность и практические подходы к использованию инновационных методов в духовно-нравственном воспитании будущих учителей английского языка. Развитие этих качеств через преподавание английского языка эффективно достигается посредством таких инновационных подходов, как интерактивные методы, современные информационно-коммуникационные технологии, проектное обучение, анализ проблемных ситуаций, дебаты, дискуссии и ролевые игры. Кроме того, написание эссе на морально-этические темы, проведение рефлексии и интерпретация национальных ценностей на английском языке предоставляют студентам возможность укрепить свою духовную позицию. Особое внимание в статье уделяется гармоничному сочетанию национальных и универсальных ценностей в процессе изучения английского языка. В результате будущие преподаватели формируются не только как специалисты в области преподавания языка, но и как духовно-просветительские лидеры.*

Keywords: *moral and spiritual education, modern information and communication technologies, innovative methods, creativity, comparison of traditional and innovative methods, role-playing games, language teaching skills.*



Annotation. *In today's era of globalization and rapid development of information technologies, teachers—especially future English language teachers—are required not only to possess linguistic knowledge but also to develop as individuals with high moral and spiritual capacity. This article highlights the importance, effectiveness, and practical approaches to using innovative methods in the moral education of prospective English teachers. Developing these qualities through English language instruction can be effectively achieved through innovative approaches such as interactive methods, modern information and communication technologies, project-based learning, analysis of problem situations, debates, discussions, and role-playing activities. Additionally, writing essays on ethical topics in English, engaging in reflection, and interpreting national values in English provide students with an opportunity to strengthen their moral outlook. The article also places particular emphasis on harmonizing national and universal values in the process of learning English. As a result, future teachers are shaped not only as language instructors but also as moral and spiritual leaders.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida inson kapitalini shakllantirish, uni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun bu ikki yo'nalish - kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy tarbiya - ayni paytda rivojlanishi lozim bo'lgan ustuvor yo'nalishlardandir. Ushbu maqola bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarning o'rni, ularning mohiyati, qo'llanilishi va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi haqida so'z yuritadi.

1. Ma'naviy tarbiyaning mohiyati va o'rni. Ma'naviy tarbiya bu shaxsning axloqiy-ruhiy kamoloti, ijtimoiy qadriyatlarga munosabati, halollik, adolat, vatanparvarlik, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Ayniqsa, o'qituvchi shaxsini tarbiyalashda ma'naviyatning o'rni beqiyosdir. Zero,



o'qituvchi yosh avlodga nafaqat bilim, balki hayotiy yo'l-yo'riq, axloqiy mezonlar, jamiyatdagi munosabatlar haqida ham saboq beradi.



Diagramma 1: Ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari

]Mazkur qadriyatlarni ingliz tili ta'limi bilan uyg'unlashtirish o'qituvchi shaxsining butunlikda rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa ularni nafaqat o'z kasbining ustasi, balki barkamol inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Innovatsion usullar tushunchasi. Innovatsion usullar bu - an'anaviy o'qitish metodlaridan farqli, ta'lim jarayoniga yangilik, kreativlik va texnologik vositalarni olib kiruvchi yondashuvlardir. Bu usullar talabalar faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish salohiyatini oshiradi.



Ko'rsatkich	An'anaviy usullar	Innovatsion usullar
O'qituvchi roli	Axborot beruvchi	Yo'naltiruvchi, fasilitator
Talaba ishtiroki	Passiv tinglovchi	Faol ishtirokchi
Vositalar	Kitob, doska	Multimedia, internet
Baholash usuli	Test, og'zaki savol-javob	Portfoliolar, refleksiya
Maqsad	Bilim berish	Kompetensiya shakllantirish

Diagramma 2: An'anaviy va innovatsion usullar taqqoslanishi

Innovatsion yondashuvlar orqali o'qituvchiga nafaqat kasbiy bilim berish, balki ma'naviy tarbiyani ham zamonaviy shakllarda singdirish imkoniyati yaratiladi.

3. Ma'naviy tarbiyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion usullar.Quyida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda ma'naviy tarbiyani amalga oshirishga yordam beruvchi samarali innovatsion metodlar keltiriladi:

a. Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning).Talabalarga "Ingliz tilidagi axloqiy qadriyatlar" mavzusida kichik guruhli loyiha topshiriqlari beriladi. Masalan, "Halollik haqida maqollarni ingliz tilida tahlil qilish" yoki "O'zbek va ingliz madaniyatidagi axloqiy qadriyatlarni taqqoslash".

b. Debat va munozaralar".O'qituvchi faqat bilim emas, ma'naviyat ham tarbiyalashi kerak" mavzusida ingliz tilida bahslar tashkil etiladi. Bu talabalarni ingliz tilida fikr bildirish, ma'naviy masalalarni tahlil qilish va o'z pozitsiyasini himoya qilishga o'rgatadi.



c. Refleksiya va esse yozish. Talabalar "Men qanday o'qituvchi bo'lishni xohlayman?", "Vatanparvarlik mening hayotimda" kabi mavzularda esse yozadilar. Bu ularni o'zini anglash, shaxsiy qadriyatlarini tahlil qilishga undaydi.

d. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. TED Talks, YouTube, podcastlar orqali axloqiy mavzulardagi chiqishlarni tinglash, ularni ingliz tilida tahlil qilish talabalarni multimodal tahlil qilishga va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

e. Rolli o'yinlar (Role-play) "Murabbiy va o'quvchi", "Qaror qabul qilish vaziyatlari" kabi rollar orqali talabalar axloqiy holatlarni amaliy tarzda tahlil qiladilar.

4. Milliy qadriyatlar va global g'oyalarni uyg'unlashtirish. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda muhim yo'nalishlardan biri - bu milliy qadriyatlarni anglash va ularni global axloqiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirishdir. Bunday yondashuv talabalarni o'z millatining madaniy merosini qadrlash, shu bilan birga, global dunyoqarashga ega bo'lishga undaydi.

Masalan, "O'zbek xalq maqollarini ingliz tilida tarjima qilish va tahlil" orqali talabalar bir vaqtning o'zida lingvistik va axloqiy bilimlarga ega bo'ladi. Yoki, "Navro'z bayrami" haqida ingliz tilida prezentatsiyalar tayyorlash ularning milliylikni anglashiga, boshqa millatlarga uni tushuntirish ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlar asosida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish dolzarb va zaruriy vazifadir. Bunday yondashuvlar orqali talabalarda til o'rgatish ko'nikmalari bilan birga, axloqiy mas'uliyat, milliy g'urur, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar shakllanadi. Ma'naviy tarbiya va innovatsion metodlarning integratsiyasi ularni



nafaqat raqobatbardosh mutaxassis, balki jamiyat uchun zarur bo'lgan barkamol shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'qituvchi shaxsini shakllantirishda ma'naviyat va ma'rifat asoslari. – Toshkent, 2020.
3. Khutorskoy A.V. Innovatsion texnologiyalar va ta'lim metodlari. – Moskva, 2018.
4. TED Talks Education Series (www.ted.com).
5. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – 2015.